Sh. T. Axmetova
N. R. Normatova

O‘zbek tili

4-sinf

I qism

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan
umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Qayta ishlangan 2-nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O‘zb-922
A 90

Taqrizchilar:

N. U. Hoshimova – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 131-IDUM oliy toifali rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi;

H. K. Abidova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 288-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi;

S. R. Tursunova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 105-umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



Og‘zaki bajaring



Yozma bajaring



Savollarga javob bering



QR-kodni skanerlang



Yodda tuting!



Bilib oling!



Uyga vazifa



O‘ylab toping!



Dars yakuni

ISBN 978-9943-9702-4-3

© Sh. T. Axmetova, N. R. Normatova
© “Novda Edutainment”, 2026

Yagonadir Vatanim mening!

lug‘at

Vatan arabcha so‘z bo‘lib, *tug‘ilgan makon* degan ma’noni anglatadi. Bizning Vatanimiz – mustaqil O‘zbekiston.

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Vatan – biz tug‘ilib o‘sgan joy, shahrimiz, qishlog‘imiz, yashab turgan go‘zal makonimiz. Har bir odam o‘zi tug‘ilib o‘sgan yerini jonidan ortiq sevishi kerak. Vatan – go‘zal tabiatimiz, mahallamiz, ko‘chalarimiz, uyimiz.

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir.

Vatan – ona kabi yagona. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram. Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir. Uni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.



Vatan – kindik qonimiz to‘kilgan tuproq.
Vatan – beshigimiz, ko‘chamiz, mahallamiz, uyimiz, turar joyimiz.
Vatan – muqaddas ona tilimiz.
Vatan – ona tabiat in’om etgan barcha boyliklar, noz-u ne’matlar.

1-mashq. Rasm asosida matn tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *davlat, daryo, qadimiy, obod, bog‘lar, chiroyli, keng, zamonaviy.*



2-mashq. Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, gaplarni ko‘chiring.

Bizning Vatanimiz katta va chiroyli. Vatanimiz o‘zining  lari bilan go‘zal. Yurtimizda baland  lar, tiniq  lar bor.  ,  ,  ,  ,  kabi foydali qazilmalar ham ko‘p. Serquyosh o‘lkamizda  lar,  lar ham yetishtiriladi.

Biz Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

3-mashq. Maqollarni o‘qing. Ona tilingizga tarjima qilib yozing.

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

4-mashq. **Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

Vatanim

O‘zbekiston go‘zal va … o‘lka. Bu yerda … shaharlar, yam-yashil vodiylar, daryo va … bor. Vatanimiz sarhadlarida … gaz, oltin, neft, ko‘mir qazib olinadi. Paxta, bug‘doy, … va sabzavotlar yetishtiriladi. Avtomobil va … zavodlari qurilgan.

Biz o‘z yurtimizni sevamiz.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ko‘llar, bepoyon, yer ostidan, texnika, meva, zamonaviy.*

2-topshiriq. **She’rni ifodali o‘qing.**

Vatan

Farid Usmon


Vatan – bizning uyimiz,
Vatan – bizning ko‘chamiz,
Soylardagi suvimiz,
Maza qilib ichamiz.

Vatan – bizning tog‘imiz,
Olma, anor bog‘imiz,
Bug‘doy, arpa dalamiz,
O‘ynab maza qilamiz.

Oltin to‘la konimiz,
Tandir to‘la nonimiz.
Vatan – maktab-onamiz,
O‘qishni o‘rganamiz.

O‘zbekiston – Vatan haqida qo‘shiq. 1

“Mening Vatanim” mavzusida kichik matn tuzing. Lug‘atdagi so‘zlarni yodlang.




O‘zbekistonning qadimiy shaharlari


lug‘at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

O‘zbekiston qadimiy va go‘zal diyor. Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko‘plab tarixiy shaharlar bor.

Samarqand – O‘zbekistonning eng qadimiy va mashhur shaharlaridan biri. U “Sharq gavhari” deb ataladi. Samarqandda Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi va Bibixonim masjidi joylashgan.





Buxoro – qadimiy ilm va madaniyat markazi. Bu yerda joylashgan Ark qal’asi, Minorai Kalon va Labi Hovuz dunyoga mashhur.




Xiva – qadimiy devorlari, tor ko‘chalari va tarixiy binolari bilan tanilgan. Xivada Ichan qal’a majmuasi bor.

Bu shaharlar O‘zbekistonning faxridir.

1-mashq. So‘zlarni tartib bilan joylashtirib, gaplar tuzing.

1. oilamiz, shahriga, Biz, Buxoro, boramiz, bilan.
2. maydonida, suratga, Registon, tushdim, Men, Samarqanddagi.
3. ko‘p, Xivada, minoralar, Qadimiy, baland.
4. Samarqandda, xolam, yashaydi, Mening.


2-mashq. Harflar aralashmasidan shaharlar nomini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.




3-mashq. **Bir xil rangdagi so‘zlardan gaplar tuzing.**

shaharlar	bor	nonlari
chiroyli	maqbara	qadimiy
mashhur	O‘zbekistonda	minoralar
juda	Xiva	dunyoga
shaharlar	Samarqandning	Buxoro
va	tarixiy	Registonda
ko‘p	Samarqand	hisoblanadi

4-mashq. **Rasmlar asosida gaplar tuzing.**




Minorai Kalon
Buxorodagi me’moriy yodgorlik



Kalta Minor
Xivadagi minora



Bibixonim majmuasi
Samarqandda Bibixonimga atab qurilgan me’moriy obida



Go‘ri Amir maqbarasi
Samarqanddagi me’moriy yodgorlik

Lug‘atdagi so‘zlarni yodlang. Ular ishtirokida beshta gap tuzing.

Maktab – bilim dargohi

lug‘at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Maktab – bilim dargohi. Biz maktabda o‘qish, yozish, hisoblashni, atrofimizdagi olam haqidagi bilimlarni o‘rganamiz. Ustozlar bolalarga mehr bilan saboq beradilar.

Maktabda biz yangi do‘stlar orttiramiz. Ular bilan turli o‘yinlar o‘ynaymiz, tadbirlarda ishtirok etamiz. Maktab bizni tarbiyalaydi. Kelajakda yaxshi kasb egasi bo‘lishimizga yordam beradi. Shuning uchun ham maktabni bilim maskani, tarbiya o‘chog‘i deymiz. Har bir o‘quvchi o‘z maktabini sevishi, sinfdoshlarini hurmat qilishi kerak.



1-mashq. Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, gaplarni ko‘chiring.

Malika  dan keldi. Onasiga uy ishlarida yordam berdi.

Keyin  dan  ,  larini olib, darslarini tayyorladi.

Maktabda  bilim oladi.  o‘quvchilarga bilim beradi.

Malika –  dagi a’lochi qizlardan biri.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Maktabda ... yaxshi ... berishadi. Biz darsda har bir ... qunt bilan o‘rganamiz. O‘quvchilar o‘tilgan mavzular bo‘yicha ... va ... bajaradilar. ... so‘zlab, ... yodlaydilar. ... – bilimlar koni.

Foydalanish uchun so‘zlar: *matnlarni, maktab, ustozlarimiz, topshiriqlarni, she’rlarni, mavzuni, mashq, bilim.*

3-mashq. So‘zlarni mazmuniga ko‘ra moslashtirib, gaplar tuzing.

Maktab –	turli to‘garaklar bor.
Sinflarda	musobaqalarda ishtirok etdilar.
O‘quvchilar	hamma sharoitlar bor.
Ijod zalida	bilim dargohi.
Maktabimizda	tadbir o‘tkazilmoqda.

O‘z maktabingiz haqida matn tuzing. Mazmunini so‘zlab bering. Lug‘atdagi so‘zlarni yodlang.

Qadrdon maktabim
Qancha?, nechta?, nechanchi? so‘roqlari, *-inchi, -nchi* qo‘shimchalari

lug‘at

Sonlar narsalarning miqdori, sanog‘i yoki tartibini bildirib, **qancha?, nechta?, nechanchi?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Masalan: *nechanchi dars? – to‘rtinchi dars.*

Sanoq sonlarga **-inchi, -nchi** qo‘shimchalarini qo‘shish bilan tartib son hosil qilinadi: **yigirma – yigirmanchi, sakkiz – sakkizinchi**.

Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda **-inchi, -nchi** qo‘shimchalari o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi.

Masalan: *to‘qqizinchi dekabr – 9-dekabr, qirqinchi xona – 40-xona.*

Sonlar raqam bilan ifodalanganda ikki xil yoziladi:
1. Arab raqami bilan: *2026-yil, 1-sentabr.*
2. Rim raqami bilan: *IV sinf, XXI asr.*

Tartib sonlar rim raqami bilan yozilganda chiziqcha qo‘yilmaydi.

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Tartib sonlar qatnashgan so‘zlarni toping.

Bizning maktabimiz katta va chiroyli. Birinchi qavatda oshxona, sport zali, tibbiyot xonasi, xorijiy tillarni o‘qitish xonalari, kutubxona va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qiydigan xonalar bor. Ikkinchi qavatda ijod zali, o‘qituvchilar xonasi, fizika, algebra, tarix, kimyo, o‘zbek tili, informatika xonalari mavjud. Uchinchi qavatda rus tili va adabiyoti hamda chet til xonalari joylashgan. O‘quvchilar maktabdagi jihozlarni asrab-avaylaydilar.

Bizga maktabimiz juda yoqadi.





2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz nechanchi sinfda o‘qiysiz?
2. Sinfingizda nechta o‘quvchi bor?
3. Sizning sinfingiz nechanchi qavatda joylashgan?
4. Ertaga necha soat dars bo‘ladi?
5. O‘qituvchilar xonasi nechanchi qavatda joylashgan?
6. Bugun o‘zbek tili darsi nechanchi xonada bo‘ladi?

1-mashq. Sonlarni raqamlar bilan ifodalab, matnni ko‘chiring.

1. Akam o‘ninchi sinfda o‘qiydi. **2.** Hozir yigirma birinchi asr. **3.** Men birinchi partada o‘tiraman. **4.** Birinchi chorak boshlandi. **5.** Men nazorat ishida ikkinchi variant topshiriqlarini yozaman. **6.** Opam bu kitobning o‘n beshinchi bobini o‘qidi. **7.** Bizning sinf xonamiz ikkinchi qavatda joylashgan.

3-topshiriq. Gaplarga mos savollar tuzing.

1. Bizning sinfimiz birinchi qavatda joylashgan.
2. O‘zbek tili darsi 71-xonada bo‘ladi.
3. Sinfimizda o‘n ikki nafar qiz bola bor.
4. Jismoniy tarbiya darsi birinchi qavatda o‘tiladi.
5. Bugun besh soat dars bo‘ladi.

Qadrdon maktabim

Qancha?, nechta?, nechanchi? so‘roqlari,
-inchi, -nchi qo‘shimchalari

2-mashq. So‘zlardan so‘z birikmalari hosil qiling.

Namuna: mashq, daftar – mashq daftari.

o‘zbek tili, xona – …
sinf, ish – …
deraza, oyna – …
kitob, javon – …
maktab, bog‘ – …
dars, jadval – …



4-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

Maktabim

Ilyos Muslim

Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon,
Yayrab o‘qiyman har on,
Qadrdonim maktabim!

Senda darslar xilma-xil,
O‘qib, o‘samiz har yil,
Sevinchlarga to‘lar dil,
Qadrdonim maktabim!

A’lo o‘qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim,
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!

-inchi, -nchi qo‘shimchali so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Lug‘atdagi so‘zlarni yodlang.



Bizning ko‘cha
So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar

lug‘at

-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi:

Masalan: *Shahrimizning ko‘chalari keng va chiroyli.*

Otlarga qo‘shiladigan **-ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan** qo‘shimchalari kelishik qo‘shimchalaridir.

O‘zbek tilida oltita kelishik bor.

Kelishiklar	So‘roqlari	Qo‘shimchalari
Bosh kelishik	kim?, nima?, qayer?	–
Qaratqich kelishigi	kimning?, nimaning?, qayerning?	-ning
Tushum kelishigi	kimni?, nimani?, qayerni?	-ni
Jo‘nalish kelishigi	kimga?, nimaga?, qayerga?	-ga (-ka, -qa)
O‘rin-payt kelishigi	kimda?, nimada?, qayerda?, qachon?	-da
Chiqish kelishigi	kimdan?, nimadan?, qayerdan?	-dan

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Gaplarga mos savollar tuzing. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni toping.

Biz Amir Temur ko‘chasida yashaymiz. Bizning ko‘chamiz katta va keng. Yo‘l bo‘yida har xil gullar va daraxtlar o‘sadi.

Har yili bahorda mahallamizda hashar o‘tkaziladi. Unda biz ham qatnashamiz. Ko‘chamizni obodonlashtirish ishlarida kattalarga yordam beramiz. Chiroyli gullar va mevali daraxt ko‘chatlarini ekamiz.



Bizning ko‘cha

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar



1-mashq. Gaplarga mos savollar tuzib yozing.

1. Bizning ko‘chamiz ozoda va keng.
2. Bayramda shahrimiz ko‘chalari chiroyli bezatiladi.
3. Yo‘l chetlariga chiroyli gullar ekilgan.
4. Katta ko‘chalarda avtomobillar qatnovi ham ko‘p bo‘ladi.
5. Biz ko‘chamizni obodonlashtirishga yordam beramiz.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Bu … ko‘chamiz. Biz ... ko‘chasida yashaymiz. Ko‘chamiz … va ... . Ko‘cha oxirida … bog‘chasi, ko‘p qavatli … bor. Mahallamizda … o‘tkazib turiladi. Unda yo‘l chetlariga ... ko‘chatlari ekiladi, ariqlar tozalanadi. Menga … juda yoqadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *gul, Amir Temur, bizning, keng, chiroyli, bolalar, ko‘chamiz, uylar, hasharlar, ozoda.*

2-topshiriq. Savollarga javob bering.



1. Siz qaysi ko‘chada yashaysiz?
2. Maktabingiz qaysi ko‘chada joylashgan?
3. Siz yashayotgan joydagi istirohat bog‘lari qanday nomlangan?
4. Qaysi ko‘chadagi bog‘ sizga yoqadi?


3-topshiriq. Rasmlar asosida krossvordni yeching.
















Ko‘changiz haqida so‘zlab bering. Uyingizdan maktabgacha bo‘lgan yo‘l xaritasini chizing.

Ko‘chamiz va mahallamiz
Bosh kelishik

lug‘at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Bizning mahalla juda obod va chiroyli. Ko‘chalari toza, yo‘laklari tekis. Har bir uy oldiga gullar ekilgan. Yo‘l chetidagi daraxtlar ko‘chamizga ko‘rk bag‘ishlaydi.

Mahallamizda kichik kutubxona, bolalar maydonchasi va yugurish yo‘lakchasi bor. Tengdoshlarimiz bilan maydonchada o‘ynaymiz. Kutubxonada qiziqarli kitoblarni o‘qiymiz.

Menga mahallam juda yoqadi.

Bosh kelishik **kim?, nima?, qayer?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishikning qo‘shimchasi yo‘q.

Masalan: *Mahallamiz obod va chiroyli. Bolalar maydonchada o‘ynaydilar.*



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi shahar yoki qishloqda yashaysiz?
2. Sizning uyingiz qaysi mahallada joylashgan?
3. Mahallangiz qanday nomlanadi?
4. Mahallangizda qanday tadbirlar o‘tkaziladi?
5. Siz mahalla raisi bo‘lsangiz, qanday ishlarni amalga oshirardingiz?
6. Sizga o‘zingiz yashayotgan mahalla yoqadimi? Nima uchun?

1-mashq. So‘z birikmalarini kengaytirib, gaplar hosil qiling.

Namuna: Bolalar o‘ynaydilar → Bolalar sport maydonchasida o‘ynaydilar.

1. Gullar ekamiz.
2. Daraxtlar o‘sadi.
3. Qushlar sayraydi.
4. Mashinalar qatnaydi.
5. Daraxtlar gullaydi.
6. Mahalladoshlar ishlashadi.



2-mashq. So‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, gaplar hosil qiling.

1. yashayman, “Navbahor”, Men, mahallasida.
2. hasharlarda, oilamiz, mahalladagi, Biz, qatnashamiz, bilan.
3. taklif etdi, Mahalla, barchani, tadbirga, raisi.
4. inoq, yashovchilar, bir-birlari, Mahallada, bilan, ahil, yashaydilar.

3-topshiriq. Yashiringan so‘zlarni toping. Ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.



I	B	K	O‘	CH	A	F	R	A	I	S
O	S	Y	M	A	H	A	L	L	A	J
B	Q	O‘	SH	N	I	L	A	R	D	A
O	L	A	H	O	L	I	P	U	Y	K
D	Q	W	R	T	H	A	SH	A	R	V

4-topshiriq. **She’rni ifodali o‘qing.**

Obod mahalla bo‘ylab

Kavsar Turdiyeva

Bizning mahalla-yu ko‘y,
Har bir xonadon va uy
Mehrlarga to‘lmoqda,
Shundan obod bo‘lmoqda.

Bizda doim qaynar ish,
Har soatda o‘zgarish.
Unda bilim o‘chog‘i,
Quvnoq maktab quchog‘i.

Unda har bekat, guzar,
Insonlar bilan go‘zal.
Gullarga to‘lgan rasta,
Tutar sizga guldasta.

Mahalla bolalari
Tarqalib turli yoqqa,
O‘ynashar bekinmachoq,
Ko‘zboylag‘ich va soqqa.

Mahallam ajib, ko‘rkam,
U ham bir kichik o‘lkam.

Mahallangiz haqida kichik matn tuzing. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.



Uyimiz
Qaratqich kelishigi

lug'at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Biz shahar markazidagi baland va chiroyli ko‘p qavatli uyda yashaymiz. Uyimiz zamonaviy uslubda qurilgan. Unda uchta xona bor: mehmonxona, yotoqxona va bolalar xonasi. Derazalarimizdan shahar manzarasi ko‘rinadi. Hovlidagi bolalar o‘yin maydonchasi hamisha gavjum. Ko‘p qavatli uyimiz juda qulay va shinam.

Biz har doim uyimizning xonalarini toza saqlaymiz.

Qaratqich kelishigidagi so‘z **kimning?, nimaning?, qayerning?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Qaratqich kelishigining qo‘shimchasi **-ning.** Bu kelishik shaxs yoki narsa-buyumning kimga, nimaga tegishli ekanini bildiradi.

Masalan: *uyning tomi, xonaning derazasi, Anvarning xonasi.*

2-topshiriq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntirib bering.

1. O‘z uying – o‘lan to‘shaging.
2. Toza uyga gard qo‘nmas.
3. O‘z uyingni o‘zing asra.
4. Har qush o‘z uyasiga qarab uchadi.



1-mashq. So‘zlarga mos qo‘shimchalarni qo‘shib, gaplarni ko‘chiring.

Uyimiz(-ni, -ning) xonalari katta. Mehmonxona(-ga, -ning) gilam to‘shalgan. Devori(-ga, -da) chiroyli rasm osilgan. Oshxona(-ning, -da) o‘ng tomonida idishlar javoni bor. Ayvon(-da, -ga) oq rangli parda osilgan. Bolalar xonasi(-ga, -ning) chap tomonida kompyuter stoli turibdi.

2-mashq. Rasmlar asosida uy qismlari nomini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.



1. Uyingiz qaysi ko‘chada joylashgan?
2. Siz nechanchi uyda yashaysiz?
3. Uyingiz necha qavatli?
4. Sizning xonadoningiz nechanchi qavatda?
5. Siz nechanchi xonadonda yashaysiz?
6. Uyingiz atrofida qanday binolar bor?
7. Uyingiz yonida bolalar maydonchasi ham bormi?

3-mashq. Chap ustundagi so‘zlarga o‘ng ustundagi so‘zlardan mosini tanlab, so‘z birikmalari hosil qiling.

uyning	o‘yinchoqlari
yo‘lakning	tomi
mehmonxonaning	yotog‘i
yotoqxonaning	idishlari
bolalar xonasining	tozalash vositalari
oshxonaning	zinasi
yuvinish xonasining	jihozlari

“Tasavvurimdagi uy” mavzusida rasm chizing. Shu asosda matn tuzing.

Uyimiz xonalari
Tushum kelishigi

lug‘at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Biz ko‘p qavatli uyda yashaymiz. Uyimiz yorug‘ va shinam. Unda mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, oshxona va hammom bor. Har bir xonani toza saqlaymiz.

Oshxonamizda mazali taomlar tayyorlanadi. Biz har kuni oshxonada o‘tirib ovqatlanamiz. Yotoqxonada uxlab dam olamiz. Bolalar xonasida dars tayyorlaymiz va o‘ynaymiz. Mehmonxonada oila a’zolarimiz bilan dam olamiz.

Uyimiz – biz uchun eng aziz maskan.

Tushum kelishigi **kimni?, nimani?, qayerni?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Tushum kelishigi belgili bo‘lsa, so‘zga **-ni** qo‘shimchasi qo‘shiladi. Belgisiz qo‘llanganda, qo‘shimcha tushib qoladi. Lekin mazmunda uning o‘rni saqlanadi.

Belgili tushum kelishigi: *Men bolalar xonasini o‘zim tozalayman.*

Belgisiz tushum kelishigi: *Men kitob o‘qiyman.*

-ni qo‘shimchasi **men, sen** kabi olmoshlarga qo‘shilganda bitta **n** harfi tushib qoladi. **Masalan:** *men+ni – meni, sen+ni – seni.*

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Uyingizda nechta xona bor?
2. Uyingizda qanday xonalar bor?
3. Uyingiz toza va chiroyli bo‘lishi uchun nima qilasiz?
4. Siz uyingiz tozaligiga qanday hissa qo‘shasiz?
5. Sizning uydagi majburiyatlaringiz nimalardan iborat?



3-topshiriq. Rasmlar asosida matn tuzing.







1-mashq. Nuqtalar o‘rniga qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Biz har kuni uyda changlar(-da, -ni) artamiz. **2.** Onam oshxona(-da, -ga) ovqat tayyorlaydi. **3.** Kitoblar javoni(-ning, -ni) tartibga soldim. **4.** Deraza(-ga, -dan) quyosh nuri tushadi. **5.** Biz gullar(-da, -ga) suv quydik. **6.** Onam gilam(-ning, -ni) yuvdi.

2-mashq. Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, gaplarni ko‘chiring.


Opam ayvondagi  ni parvarish qiladi. Biz uyimizdagi xonalarni bilan tozalaymiz. Bolalar xonasidagi jihozlarni toza saqlaymiz. Onam yotoqxonadagi  ni yuvdi. Mehmonxonaga yangi  ilamiz.

3-mashq. **Gaplarda *kim?, nima?, nimani?, nimaning?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topib, so‘rog‘ini qo‘yib yozing.**

Namuna: *Men oshxonadagi idishlarni (nimani?) javonga qo‘ydim.*

1. Biz yotoqxonaga gilamni soldik.
2. Onam oshxonadagi idishlarni tozaladi.
3. Bobom bilan otam tomni ta’mirladilar.
4. Bu – mehmonxonaning eshigi.
5. Bolalar xonasidagi yotoqlar yangi.

4-mashq. **Gaplarga mos savollar tuzing.**

1. Men kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman.
2. Donishmandlar kitobni eng sodiq do‘st deyishadi.
3. Do‘stlarimiz bilan qiziqarli kitoblar haqida suhbatlashdik.
4. Biz kutubxonadan kerakli kitoblarni oldik.
5. Men Orif To‘xtash she’rlarini sevib o‘qiyman.

5-mashq. **Buyumlarni xonalarga to‘g‘ri joylab, gaplar tuzing.**



Foydalanish uchun so‘zlar: *xarita, kiyim javoni, idishlar javoni, yozuv stoli, qandil, stol lampasi, stol, kitob javoni, gilam, ko‘zgu, gullar, yotoq, stullar, kompyuter, rasm, tungi chiroq, gaz plitasi, o‘yinchoqlar, sovitkich, divan, g‘aladon, kreslo, televizor.*

6-mashq. Matnni o‘qing. *Nimani?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topib yozing.

Men yashaydigan shaharda ko‘p qavatli uylar juda ko‘p. Biz ham shunday uylarning birida yashaymiz. Men o‘z uyimni yaxshi ko‘raman. Uyimizda har birimizning o‘z vazifalarimiz bor. Otam ro‘zg‘or uchun kerakli mahsulotlarni olib keladi. Onam mazali ovqatlar tayyorlaydi. Men mehmonxona, yotoqxona va bolalar xonasini tozalayman. Opam yuvinish xonasi, ayvon va oshxonaning tozaligiga javob beradi. Singlim bolalar xonasidagi changlarni artadi. Ukam esa chiqindilarni olib chiqib tashlaydi. Bobom va buvim uydagi hamma gullarni parvarish qilishadi.

Biz uyimizni toza va ozoda saqlaymiz.

Uyingiz haqida kichik matn tuzing. Lug‘atdagi so‘zlarni yodlang.



9-dars. 1-nazorat ishi. Diktant
10-dars. Xatolar ustida ishlash

Tejamkorlik
Jo‘nalish kelishigi

lug‘at

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ona tilingizga tarjima qiling. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Tejamkorlikni bolalikdan o‘rgatish zarur. Chunki hayotda hamma narsaning **me’yori** bor. Bu xislat yoshlikdan o‘rgatib borilsa, bolaning ongida bir umr qoladi. U **hayoti davomida** olgan **o‘gitlarini** qo‘llab, oilasi, jamiyat va o‘zi uchun katta **foyda keltiradi.**

Tejamkorlik – farovon **turmush garovi.** Tejamkorlik hamma narsalarni **me’yorda**, **isrof qilmasdan** ishlatish degani.

Bolalar, isrofdan qoching, tejamkorlikka amal qiling!

-ga (-ka, -qa) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari bo‘lib, harakatning yo‘nalishini bildiradi.

Jo‘nalish kelishigi **kimga?, nimaga?, qayerga?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

gaz *suv* *uy* *hovli*	*-ga*	*sirk* *eshik* *chelak* *terak*	*-ka*	*qishloq* *buloq* *buzoq* *tuzoq*	*-qa*

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz uyingizda suvni qanday maqsadlarda ishlatasiz?
2. Nima uchun suvni tejash kerak?
3. Uyingizda xonalarning chirog‘ini yoniq qoldirasizmi?
4. Tabiiy gazni qanday qilib tejash mumkin?



Tejamkorlikning oltin qoidalari:



1. Elektr energiyasi va maishiy texnika vositalaridan faqat kerakli paytda foydalaning. Boshqa paytda ularni yoniq holda qoldirmang!



2. Gazni o‘chirishni unutmang!



3. Suvni tejab ishlating, chunki suv – hayot manbayi.



4. Ovqatlanishda me’yorni saqlang!



5. Pulni faqat zarur narsalarga ishlating.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Kompyuter va telefondan ko‘p foydalansak, … zarar yetadi.
2. Gazni yoqilgan holda qoldirish uning ... bo‘lishiga olib keladi.
3. Suvni ishlatib bo‘lgach, jo‘mrakni ... zarur.
4. Choy qaynatish uchun ... o‘zingizga kerakli miqdorda oling.
5. O‘quv qurollaringizni ... saqlasangiz, ota-onangizning ... tejaysiz.
6. Kiyimlaringizni ... tutsangiz, oila budjetidagi pulni ... bo‘lasiz.

Foydalanish uchun so‘zlar: *pullarini, tejagan, isrof, sog‘lig‘imizga, ozoda, o‘chirish, suvni, avaylab.*

3-topshiriq. Maqollarni o‘qing va yod oling.

Bir boshoq don –
Bir savat non.

Tiyin qadrini bilmagan
So‘m qadrini bilmas.

Pul topish oson, saqlash qiyin.

Yig‘sang – ko‘p, sovursang – oz.

Toma-toma ko‘l bo‘lar,
Tommay qolsa, cho‘l bo‘lar.

Yaxshi o‘g‘il tejar ota molini,
Yomon o‘g‘il sochar ota molini.

Pulning onasi – tiyin.

Tejab yegan darmonda,
Tejamagan armonda.

2-mashq. So‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, gaplarni ko‘chiring.

1. katta, Uyimizda, talab, elektr energiyaga, juda. **2.** issiq suvni, uchun, Biz, oyda, ko‘p, bu, tejamaganimiz, to‘ladik, pul. **3.** o‘rnatdi, hisoblagich, Dadam, gazga. **4.** hisoblagich, Sovuq, uchun, o‘rnatdik, suv.

3-mashq. Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, gaplarni ko‘chiring.

 ni tejash kerak!

 ni isrof qilmang!

 ni tejab ishlating!

 ni yoniq holda qoldirmang!

 ni keraksiz narsalarga ishlatmang!

Siz tejamkorlikka oid qanday qoidalarga amal qilasiz? Shu asosda “Men tejamkorman” mavzusida kichik matn tuzing. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarning tagiga chizing.



1-topshiriq. **Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.**

1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilingan. Bu Qonun **1995-yil 21-dekabrda** yangidan tahrirlangan. **1989-yildan buyon 21-oktabr** respublikamizda Davlat tili kuni sifatida nishonlanadi. **2019-yildan** esa **21-oktabr** O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Mamlakatimizda davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritiladi.

Til – millat ko‘zgusi. Agar har birimiz tilimizni sevsak, qadrlasak va u bilan faxrlansak, tilimiz abadiy yashaydi.



Abdulla Avloniy yozganidek:
“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.



O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlar **kimda?, nimada?, qayerda?, qachon?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘lib, **-da** qo‘shimchasi yordamida yasaladi. Bu kelishikdagi so‘zlar ish-harakatning manbayi, payti, o‘rni, vositasi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Masalan: *Biz o‘zbek tilida yaxshi gapirishga harakat qilamiz.*

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Respublikamizda o‘zbek tili qanday til hisoblanadi?
2. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berilgan?
3. O‘zbek tili bayrami qachon nishonlanadi?
4. Maktabingizda ona tilimizni ulug‘lashga bag‘ishlangan qanday tadbirlar o‘tkaziladi?



1-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. 21-oktabr kuni maktabimiz faollar zalida katta … bo‘ldi. **2.** Men … … darsini yaxshi ko‘raman. **3.** O‘quvchilar “Ona tilim” she’rini … o‘qib berishdi. **4.** Menga o‘zbek xalq … juda yoqadi. **5.** Sinfimiz o‘quvchilari O‘zbek tili ... faol ishtirok etishdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *tadbir, bayramida, ertaklari, ifodali, o‘zbek tili.*

2-mashq. Rasmlarni so‘z bilan ifodalab, gaplarni ko‘chiring.

O‘zbek tili darsi boshlandi. 

yangi mavzuni tushuntirdi.  mashqning shartini o‘qidi. qiziqarli gaplar tuzdilar.  gaplarni doskaga xatosiz yozdi.  “Ona tilim” she’rini ifodali aytib berdi.  yangi mavzuni yaxshi tushunishdi.

3-mashq. Gaplarga mos savollar tuzing.



1. Menda o‘zbek shoirlari she’rlari to‘plami bor.
2. Rasmda o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tasvirlangan.
3. O‘quvchilar o‘zbek tilida gaplar tuzdilar.
4. Biz tadbirda o‘zbek tilida she’rlar o‘qidik.
5. Men diktantlar tanlovida g‘olib bo‘ldim.

3-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

Ona tilim

Tursunboy Adashboyev

Alla bo‘lib jaranglagan
Ona tilim – jon-u dilim.
Unga axir payvastadir
Qadr-u qimmat, mehr, bilim.

Buyuk Temur jahon bo‘ylab
Dovrug‘ini solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo‘lib qolgan tilim.

4-topshiriq. Maqollarni o‘qing. Ma’nosini tushuntiring.

- Odobning boshi – til.
- Til – dil kaliti.
- Tilga e’tibor – elga e’tibor.
- Til yaxshisi bor etar,
  Til yomoni xor etar.
- So‘zning boyligi –
  odamning chiroyligi.

Til haqidagi maqollarning ma’nosini tushuntirishga tayyorlaning. “Ona tilim” she’rini yod oling.

